

**SAVOD O'RGATISH DAVRIDA INTERFAOL USULLAR (DIDAKTIK
O'YINLAR) DAN FOYDALANISH.**

Hakimova Dilorom

*Andijon viloyati Izboskan tumani 16- umumiy o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi*

Annotatsiya : *Ushbu maqolada bolaga savod o'rgatish davri bosqichlari haqida
ma'lumot berilgan. 1. Tayyorgarlik davri, 2. Asosiy davr. Bundan tashqari savod
o'rgatishda taniqli pedagoglarning fikrlari berilgan. Turli didaktik o'yinlardan na'munalar
keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *didaktik o'yinlar, interfaol.*

Bu davrda ta'limiylar – tarbiyaviy ishlardir. Bu davrda o'quvchilar rasm
asosida matn tuzadilar. She'r, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan aytadilar va
yangi she'r, maqol, ertak, kabilar o'rgatib boriladi. Savod o'rgatish davrida tovush,
harf, bo'g'in, so'z, matn haqida ma'lumot beriladi va o'rgatiladi. Hamda unli va undosh
tovushlarni talaffuziga qarabfarqlash o'rgatib boriladi.

Savod o'rgatishning ilk bosqichida harf va tovush haqida tushuncha, so'zni bo'g'in
va tovushga ajratish, nutqini rivojlantirish, so'zlarning yozuvda ifodalanishi,
boshlang'ich orfografiya qoidalari asosida yozuvga o'rgatish kabi muhim vazifa turadi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning savodxonligini yanada o'stirish uchun
ta'lif jarayonini didaktik o'yinlar bilan tashkil etish samarali natijalarga olib keladi.

Savod o'rgatish darslarida didaktik o'yinlarni tashkil etishda o'quvchilarning bilish
darajasi, yoshi, psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Didaktik o'yinlar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini
sinash jarayonlarida qo'llaniladi.

Xalq pedagogikasida bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik o'yinlardan keng
foydalanish an'analari hozirgi kunda o'qituvchilar tajribasi asosida rivojlantirildi.

Chez pedagogi Y. A. Komenskiy didaktik o'yinlar bolaning aqliy faoliyatini
o'stirish, nutqini rivojlantirish, tasavvurlarini kengaytirish, tengdoshlariga
yaqinlashtirishini ta'kidlagan edi.

Didaktik o'yinlar o'quvchining turli-tuman qobiliyatini, idroki, nutqi, diqqatini,
hamda aqliy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiyada ham bola psixikasining rivojlanishida o'yinlar o'rni katta ekanini
aytib o'tilgan. Abu Rayxon Beruniy o'quvchilarni ta'lif jarayoniga qiziqtirish muhim
vazifa ekanligini uqtirib, "Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keladi"- degan edi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarni darsga qiziqishini o'stiradi, mustaqil fikrlashga
undaydi. O'quvchilarni o'qishga ishtiyoqini o'stirish uchun ta'lif sifatini oshirish

lozim. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirish uchun didaktik o'yinlardan keng foydalilaniladi.

Didaktik o'yinlarda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan holda ta'limiy vazifalarni o'z ichiga olish muhimdur.

Didaktik oyinlar 3 turga bo'linadi.

1. Og'zaki so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar.
2. O'yin mashg'ulotlari.
3. Harakatli o'yinlar.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning darsga qiziqishini o'stirishning eng samarali usulidir.

Quyida didaktik o'yin turlari bilan tanishamiz.

1. "Bekinmachoq" o'yini

Bu o'yinda So'zning 1 ta harfi tushurib qoldiriladi. Masalan: K I O B o'quvchilar katakchaga yashiringan harfni topadilar. Bu harf T harfi. K I T O B

2. "O'z o'rnnini top" o'yini.

Bu o'yinda so'zdagi harflar almashtirilib beriladi. O'quvchilar harflarni o'z o'rniqiga qo'yib so'z hosil qiladilar. Masalan: M A R K A - K A R A M

R M A K A

3. "So'zdan so'z top" o'yini.

Bu o'yinlar guruqlar bo'yicha o'ynatilsa yana ham yaxshi bo'ladi. O'quvchilarni tez fikrlashga, topqirlilikka, epchillikka yetaklaydi. Musobaqa tarzida o'tkaziladi. Masalan: B I L I M L I, B I L, I L, B I L I M

4. "Qaysinisi ortiqcha" o'yini.

5. Bu o'yin o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Masalan:

M A K T A B - M A K T R A B tarzida yoziladi. Bunda R harfi ortiqcha ekanligini topishadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida interfaol usullar (didaktik o'yinlar) dan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi savod o'rgatish davrida ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni kiritish zarurdir. Chunki, didaktik o'yinlar o'quvchilarni darsga qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini o'stiradi hamda darsdagi faolligini oshiradi.

So'zlar vositasida o'ynaladigan o'yinlar "Tez aytish", "Topishmoq", "Zanjir" kabi so'z o'yinlari o'quvchini og'zaki nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday o'yinlar so'zlar vositasida nutqni o'stiruvchi o'yinlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol o'yinlar o'quvchi shaxsini rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uzviyylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi "Yangi yo'l poligraf servis"-2010
2. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar T. Gaffarova. "Tafakkur" Toshkent-2011
3. "Zamonaviy ta'lim " jurnali "Innovatsion texnologiyalar markazi" nashriyoti . 2018 Andijon Malaka Oshirish Instituti o'qituvchilari.